

UCHINCHI RENESSANS YOSHLARINI TARBIYALASHDA KIMYO FANINING O'RNI

Djurayeva gavhar Qo'ldoshevna

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Toshkent filiali assistenti*

Mutalova Aqida Ashiraliyevna

Angren Shahar 5-umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizdagi yosh avlodni tarbiyalashda kimyo ta'limi standartlari asosida, milliy tariximizga yo'g'rilgan holda mehnatsevar, iste'dodli uchinchi renessans yoshlarni tarbiyalashda kimyo fanining o' rni haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim to'g'risidagi qonun, kimyo ta'limi standartlari, milliy tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, tabiiy boyliklarimiz, iste'dodli yoshlar.*

Mamlakatimizda sog'lom va uyg'un kamol topgan yosh avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar yaratish, XXI asr –intellectual qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborg aolgan holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish borasidagi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsad qilingan.

O'quv jarayoniga yangi axborot –kommunikatsiya va pedagogic texnologiyalarini, electron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv-laboratoriya jixozlari va uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylarning samarali tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kimyo fani pedagogic jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridan ta'lim-tarbiya soxasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator xulosalar asosida amaldagi ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi taraqqiyot va kelgusidagi talablar darajasigacha ko'tarishga, uni takomillashtirishga jiddiy e'tibor berish zarurligi va ta'lim tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashdan kelib chiqib, kimyo fani oldiga qator vazifalar qo'yildi. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunga muvofiq:

1) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi konsepsiyasini qayta ishlab chiqildi.

2) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, uning standartlarini ishlab chiqish taqazo qilindi.

Kimyo fanidan davlat ta'limi standartlari predmetning majburiy mazmunini belgilab beradi.

Umumiy o'ta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi standarti-kimyo ta'limi tizimidagi barcha komponentlarni: ta'limning mazmunini, madsadini, vazifalarini, ta'limning uzliksizligini, tashkiliy shakllarini, usullarini, vositalarini va boshqalarni qayta ko'rib chiqish mezonini hisoblanadi.

Kimyo ta'limi konsepsiyasiga muvofiq kimyo ta'limining yo'nalishi va maqsadi yosh avlodning kimyo fani asoslarini chuqur egallashi, o'quvchilarning siyosiy-g'oyaviy, estetik, ekologik tarbiyasi, tabiatda va jamiyatda bo'lgan ijobiy munosabati, qadimgi yashab, ijod etib o'tgan buyuk mutafakkirlar, keying yillardagi olimlarimizning kimyo sohasidagi erishgan yutuqlariga oid yozuv materiallari bilan tanishtirib boorish orqali vatanga bo'lgan e'tiqodni shakllantirish, kasbga yo'naltirish ko'zda tutiladi. Kimyo ta'limi standarti-kimyo o'qitishda o'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar, shuningdek o'quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi bilim va amaliy faoliyatlari darajasi me'yorini belgilaydigan mezon bo'lib hisoblanadi.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va ma'suliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib oxir – oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan allomaning ilm-fan rivojida nufuzi shuqadar yuksak ediki, uning ismi Sharifi yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. Oydagi kraterlardan ikkitasi buyuk vatandoshimiz-Axmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi.

Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayxon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni "Beruniyasri"

deb ta'riflaydi. Bunday yuksak baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga, o'z zamodoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo'lgan, ammo har qanday og'ir sharoitga qaramasdan, e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq bo'lganidan dalolat beradi.

Ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo'lmish mashhur alloma Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan fan sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqiyosida "Meditina", "Sog'lom turmush tarzi" degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat

qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyoti, insonparvarlik ruhida, yani ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sirini o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor.

Bugungi kunda yurtimizda har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifaga aylanib, bu masalaga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Asosini kimyo fani tashkil qiladigan sohalaridan: farmatsevtika, neft va gaz sanoati, oziq-ovqat sanoati, tibbiyot, kimyo-texnologiyalar, veterinariya farmatsevtikasi, biotexnologiyalar va bir qator boshqa sohalar rivojlantirilmoqda. Shu o'rinda, ko'plab yoshlarimizning xalqaro kimyo fani olimpiadalarida, yosh tadqiqotchilarning turli konferensiyalarda muvaffaqiyatli qatnashayotgani va olimlarimizning yangidan- yangi moddalar hamda dori vositalarini kashf etayotganini alohida e'tirof etish kerak. Bu kabi yutuq va natijalar Beriniy, Farg'oniy, Ulug'bek, Ibn Sinolar farzandi aslida kim ekanligini dunyo ahliga yana bir bor isbotlanmoqda.

Yurtimizda tabiiy boyliklar, unumdor yer, katta iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud. Eng muhimi, budiorda ana shu farovon hayotni o'z kuchi, o'z aql-zakovati bilan barpo etishga qodir bo'lgan mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi. Muxtasar qilib aytganda, milliy g'oyamizga qaysi tomondan ta'rif va baho bermaylik, xalqimizni birlashtiradigan bu oliy maqsadlar asrlar davomida uning yuradigan, qalbidan joy olib kelgan orzu-armon va ezgu intilishlar bilan chambarchas bog'liq ekaniga ishonch xosil qilamiz. O'zbekistonda foydali qazilmalar va mineral xom ashyo zaxiralari juda

ko'p. Oltin zaxiras ibo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi. Shuningdek, mamlakatimiz uran zaxiralarining miqdori bo'yicha ham yetakchi o'rinni egallaydi. Buyerda neft va gaz resurslari ham ko'p. Yurtimizda, shuningdek, mis, kumush, litiy, fosfor kabi mineral qazilmalarning ham boy zahras mavjud. Bundan tashqari, Vatanimiz hududi ko'mir zahiralariga ham boy. Mamlakatimizda 20 ta marmar koni, 15 ta granit va qimmatbahotashlarkonianiqlangan. Konlardagitoshlar rang-barangvanoyobdir.

Shu bilan birga tarixiy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar ham bor. Turmush tarziga orqa-oldini o'ylamasdan bugungi hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilashni inkor etmaslik zarur.

Inson o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarashiga va mustahkam irodaga ega bolishi zarur. Ilm fanni yanada rivojlantirish, talantli, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish uchun sharoit yaratish, ular tomonidan o'zlarining ijobiy va intellectual salohiyatini amalga oshirish, jumladan, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish maxsus jamg'armasini tashkil etish, Fanlar akademiyasi va mamlakatimiz oliy ta'lim muassalari tizimida ilg'or, istiqbolli ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish uchun yangi laboratoriyalar yaratish, xorijiy ilmiy markazlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirish bo'yicha kompleks chora –tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunni dolzarb vazifalaridan biridir.

Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Har tomonlama yuqori bilimga ega bo'lgan, axborot texnologiyalari bilan yaxshi tanish mutaxassislar soni kundan-kunga toboro ortib bormoqda. Yuksak salohiyatli mutaxassislarga talab doimgidek juda katta. Iqtidorli yoshlarimizning ko'payayotgani jamiyatda o'ziga xo'sraqobatni yuzaga keltirdi. Shunday ekan, kelajakda qanday natijaga erishishimiz ko'p jihatdan o'zimizga, bugungi say-harakatlarimizga, o'qib izlanishimizga bog'liq. Yetuk kadr bo'lib yetishish uchun, albatta, poydevor mustahkam va barqaror bo'lishi kerak. Agar siz kasb egallashni maqsad qilgan bo'lsangiz, vaqtni zo'ye ketkazmang, bilimingizni hozirdan boyitibborib, kelajagingizga mustahkam poydevor tayyorlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toshpo'latov Yu .T., Rahmatullayev N.G. "Anorganik kimyo nazariy asoslari" Toshkent: "O'qituvchi" 2005yil.
2. Q. Axmerov, A. Jalilov, R. Sayfutdinov. "Umumiy va anorganik kimyo" Toshkent "O'zbekiston". 2003 yil.
3. G. Xomchenko. "Kimyo". O'quv qo'llanma T: «O'qituvchi» 2007 y
4. H. R. To'xtayev, R. Aristanbekov, K. A. Cho'lponov, S. N. Aminov "Anorganik kimyo" Toshkent "Noshir" 2011yil.
5. G. P. Xomchenko I. G. Xomchenko "Kimyo" Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 2009-yil.
6. Abdulxayeva M. M., Mardonov U. M. Kimyo. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma Toshkent «O'zbekiston» nashriyoti 2002 yil
7. <https://uz.wikipedia>.
8. WWW.Ziyonet.uz